

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 218 (1279), 2024-yil 28-oktabr, dushanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOEV
SAYLOVDA OVOZ BERDI

27-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlar bo‘lib o‘tdi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oila a‘zolari bilan birgalikda poytaxtimizning Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 59-saylov uchastkasiga tashrif buyurib, ovoz berishda ishtirok etdi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 128-moddasida fuqarolar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish

huquqiga ega ekani belgilangan. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlangan.

Saylovda beshta — Tadbirkorlar va ishbilamonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, Ekologik partiya, Xalq demokratik partiyasi hamda

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi ishtirok etdi.

Bu muhim voqea “Mening tanlovim — obod Vatanim” shiori ostida, rivojlangan ijtimoiy-siyosiy muhitda o‘tdi.

O‘zbekiston tarixida ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralash saylov tizimi, ya‘ni majoritar-proporsional

tizim asosida o‘tkazildi. Deputatlarning 75 nafari bevosita majoritar tizim asosida, ya‘ni saylovchilar o‘zlariga maqbul nomzodlarga ovoz berishi yo‘li bilan, qolgan 75 nafari esa proporsional tizim bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida saylanadi.

Saylov qonunchiligi ilg‘or demokratik standartlarga mos ravishda tubdan takomillashtirildi. Jumladan, saylov organlarining Markaziy saylov komissiyasi boshchiligidagi yangi tizimi joriy etildi, jamiyat hayotida xotin-qizlarning rolini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko‘rsatishda ayollarning ulushi kamida 40 foiz bo‘lishi belgilandi.

Bu yilgi saylovlarning yana bir e‘tiborli jihati — jarayon ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari to‘liq raqamlashtirilgan holda “E-saylov” axborot tizimi orqali amalga oshirilganida namoyon bo‘ldi. Mazkur tizim saylovlarning ochiqqligini yuqori bosqichga olib chiqdi.

Barcha saylov uchastkalarida qonunchilikda belgilangan sharoitlar yaratildi. Joylarda 5 ming 770 ta okrug va 11 ming 28 ta, jumladan, 40 ta xorijiy mamlakatda 57 ta saylov uchastkasi tashkil etildi.

Uni kuzatishda MDH, SHHT, Turkiya davlatlar tashkiloti, shuningdek, YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining to‘laqonli missiyasi tarkibida 850 nafardan ziyod xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari saylov uchastkasiga kelgan odamlar bilan suhbatlashdi. O‘z yurti va yashayotgan hududi taqdiriga daxldorligini his qilib, saylovlarda faol qatnashayotgan fuqarolarga minnatdorlik bildirdi.

O‘ZA

Mening tanlovim —
obod Vatanim!SAYLOVDA XALQIMIZNING
JISPLIGI, YURT TAQDIRI VA
KELAJAGIGA DAXLDORLIGI
YAQQOL NAMOYON BO‘LDI

Inson qadri ulug‘langan, har tomonlama taraqqiy etgan kuchli davlat, ochiq va farovon jamiyat barpo etish milliy rivojlanish yo‘lidagi bosh g‘oyamiz va euzu niyatimizdir. Yurtimizda 27-oktabr kuni “Mening tanlovim — obod Vatanim” shiori ostida bo‘lib o‘tgan parlament va mahalliy kengashlarga saylovlar jarayonida xalqimiz ana shunday ulug‘ maqsad yo‘lida yakdil va hamnafas ekanini yana bir karra isbotladi.

Saylovda yuqori faollik ko‘rsatilgani, har bir saylovchi tegishli qonunchilikka amal qilib, o‘z fuqarolik burchini emin-erkin ado etgani buning yaqqol tasdig‘i bo‘ldi. Xususan, soat 17:00 ga qadar saylovchilarning 71,52 foizi ovoz berishda ishtirok etdi. Qonunchilikka ko‘ra, jami saylovchilarning 33 foizi ovoz berishda ishtirok etsa, saylov o‘tgan deb hisoblanadi. Ayni raqamlardan kelib chiqilsa, ushbu saylovni o‘tgan deb hisoblash asosidir.

Saylov — demokratiya ko‘zgusi. Bu jarayon orqali har bir fuqaro jamiyat va davlat boshqaruvida qatnashadi. Saylovlar xalqning davlat hokimiyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatib turadi. Shu bois, ushbu siyosiy jarayonni demokratiya talablari asosida tashkil etish uchun zarur sharoit yaratish har bir davlatning rivojlanish darajasini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda bu yo‘nalishdagi muhim islohotlar jamiyatimizning turli sohalarida erishilayotgan yutuqlarning muhim omili bo‘layotir.

Jumladan, saylov yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilab berilgan mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy muhitda, parlament va mahalliy kengashlarning davlat hokimiyati tizimidagi o‘rni va vakolatlari



MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda o‘tkazildi. Shu bilan bir qatorda, saylov qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga binoan, bu galgi saylovda yurtimiz tarixida birinchi marta aralash saylov tizimi sinovdan o‘tkazildi. Bu tizim asosida Qonunchilik palatasi deputatlarining 50 foizi bir mandatli saylov okruglaridan majoritar tizim bo‘yicha, qolgan 50 foizi esa partiya ro‘yxati bo‘yicha proporsional tizim orqali saylanadi. Ekspertlar fikricha, ushbu o‘zgarish individual vakillik bilan partiya manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Davomi 2-betda

TANLOVLAR TURFA, MAQSAD YAGONA —
YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINI JADALLASHTIRISH,
AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH
Saylovchilar fikrining umumiy xulosasi shunday

Kuni kecha, 27-oktabr kuni mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga saylovlar bo‘lib o‘tdi. Bu yilgi saylovlar ilk marotaba yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilab berilgan mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy muhit — parlament va mahalliy kengashlarning davlat hokimiyati tizimidagi o‘rni va vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda o‘tkazildi. Asosiysi, yurtdoshlarimiz tanlovi — saylovda ovoz berish jarayoni Saylov kodeksi va xalqaro talablarga mos ravishda, ochiq, shaffof va demokratik ruhda o‘tdi.

Ilk bor aralash — majoritar va proporsional tizimda o‘tkazilgan saylovda ovoz berish huquqiga ega fuqarolar faol ishtirok etib, o‘zlari munosib deb bilgan partiya va nomzodlarga ovoz berdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga saylovda ovoz berish uchun xorijiy mamlakatlarda ham saylov uchastkalari tashkil etilib, chet elda bo‘lib turgan yurtdoshlarimizga zarur sharoit yaratildi.

Shu tariqa mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi yo‘lidagi muhim siyosiy jarayon — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga saylovlar barcha — 11 mingdan ortiq saylov uchastkasida qizg‘in kechdi. Bu holat hamyurtlarimizning yangi O‘zbekiston kelajagiga daxldorligi ortib borayotgani, jamiyatimizda demokratiya qadriyatlar tobora keng ommalasha-

yotgani, aholining islohotlarga ishonchi yanada mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Quyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga saylovlarda ishtirok etib, tanlovini erkin amalga oshirgan yurtdoshlarimiz fikrlari bilan tanishasiz.

2-, 3-betlarga qarang.

Islahot odimlari

YANGI QIYOFADAGI
ICHKI ISHLAR ORGANLARI
yurt tinchligiga hissa qo‘shish
orqali xalqni rozi qilmoqda

Yangi O‘zbekiston ichki ishlar organlari mamlakatimizda jamoat xavfsizligi, xalq osoyishtaligini ta‘minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Vatan oldidagi jonbozligi va fidoyiligi uchun Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi.

Davlatimiz rahbarining “Fursatdan foydalanib, siz, azizlarga o‘z xizmat burchingiz va muqaddas qasamyodingizga doimo sodiq qolib, Vatanimiz va xalqimizga fidokorona xizmat qilib kelayotganingiz uchun chin dildan tashakkur bildiraman. Hech shubhasiz, sizlarning mashaqqatli va sharaflil mehnatingizni munosib rag‘batlantirish kelgusida ham davlatimiz va jamiyatimizning e‘tibor markazida bo‘ladi”, degan so‘zlaridan vazirlik shaxsiy tarkibi nihoyatda ruhlandi. Bunday e‘tibor

bizni yanada fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi. Shu bilan birga, bildirilgan yuksak ishonch zimmamizga ulkan mas‘uliyat yuklab, har bir xodimning mehnat faoliyati davlatimiz diqqat-e‘tiborida ekanidan dalolat beradi. Bu, o‘z navbatida, sharaflil va mas‘uliyatli xizmati davomida xalqimiz, mamlakatimiz manfaatlariga sodiq qolib xizmat qilishida ichki ishlar organlari xodimlariga beqiyos rag‘bat va kuch beradi.

Davomi 4-betda



Bu yil 85 yoshga kirdim. Shu vaqtgacha ko‘plab saylovlarda ishtirok etganman. Ammo keyingi saylovlar oldingilariga nisbatan boshqacha o‘tkazilmoqda. Kechagi saylovdan qiyos: aralash — proporsional va majoritar saylov tizimi degan yangi atamalar paydo bo‘ldi. Saylovdan oldin bu terminlarning ma’nosi, tartibi bilan tanishib chiqdim. Ko‘plab rivojlangan davlatlarda saylovlar shu tartibda o‘tkazilar ekan.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

TANLOVLAR TURFA, MAQSDAD TARAQQIYOTINI JADALLASHTIRISH, Saylovchilar fikrining

FARZANDLARIMIZ BIZDAN-DA BAXTLI-SAODATLI YASHASHIGA ISHONAMAN



Esonbek POLVONOV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
yoshlar murabbiysi

Har bir fuqaro saylash huquqiga ega. Mamlakat taqdiriga befarq bo‘lmagan har biri kishi ushbu huquqidan foydalanadi. O‘zim ham vatan oldidagi fuqarolik burchimni bajarib, munosib deb bilgan nomzodlarga birinchilardan bo‘lib ovoz berdim.

Men bilan birga farzandlarim, kelinu nevaralarim ham ovoz berishga bordi. Betobligi sababli turmush o‘rtog‘im saylovga borolmadi. Uchastka saylov komissiyasi raisiga aytgandim, “Uyingizga uchastka saylov komissiyasi a‘zolarini yuboraman, yanga uyingizda turib ovoz beradi”, dedi.

Shunchaki to‘g‘ri kelgan nomzodga ovoz bermadik. Saylovdan oldin siyosiy partiyalar, deputatlikka nomzodlarning Saylovoldi dasturi bilan tanishib chiqdik. Qolaversa, deputatlikka nomzodlar qishlog‘imizga kelib, aholi bilan uchrashuvlar o‘tkazdi. Ular bilan savol-javoblar qildik. Shu tariqa ularning dasturlarini muhokama qildik. OAVda ham siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqotini doimiy kuzatib bordik. Aniq bir qarorga kelganimizdan keyin barchamiz o‘zimiz xohlagan, ya’ni kelajagimizni ishonang nomzodlarga, siyosiy partiya ovoz berdik.

Bu yil 85 yoshga kirdim. Shu vaqtgacha ko‘plab saylovlarda ishtirok etganman. Ammo keyingi saylovlar oldingilariga nisbatan boshqacha o‘tkazilmoqda. Kechagi saylovdan qiyos: aralash — proporsional va majoritar saylov tizimi degan yangi atamalar paydo bo‘ldi. Saylovdan oldin bu terminlarning ma’nosi, tartibi bilan tanishib

chiqdim. Ko‘plab rivojlangan davlatlarda saylovlar shu tartibda o‘tkazilar ekan.

Yangi saylov tizimining afzalliklari ko‘pligini angladim. Misol uchun, oldingi saylovlarda nomzod g‘alaba qozonish uchun saylovchilarning kamida 50 foizidan ortiq ovoz olishi kerak bo‘lardi. Ko‘p guvoh bo‘lganman, saylovchilarning shuncha ovozin to‘plash qiyin va natijada saylovdan keyin yana takroriy saylovlar o‘tkazilardi. Bu esa qo‘shimcha ish, xarajat degani. Yangi tizimda esa eng ko‘p ovoz olgan nomzod saylangan hisoblanarkan. Boshqacha aytganda, endi takroriy saylovlar o‘tkazilmaydi.

Ziyoliman, uzoq yillar maktabda kimyo-biologiya fanlaridan dars berganman. Bir necha yil maktab direktori lavozimida ham ishladim. Hozir maktabimizdagi ko‘pchilik o‘qituvchilar — shogirdlarim. Ularga havasim keladi. Oldinlari biz bu paytda paxta dalalarida bo‘lardik. Havo sovuqmi, qormi, yomg‘irmi — farqi yo‘q, belgilangan rejani bajarish talab qilinardi. Ba’zi paytlari dekabrning oxirigacha paxta terganmiz. Qahraton sovuqda ham dala uylarida yashaganmiz. Natijada ko‘plab o‘quvchilar, o‘qituvchilar kasal bo‘lardi.

Davlatimiz rahbarining qat’iy siyosiy irodasi majburiy mehnatdan — paxta

terishdan ozod etilganimiz aslida chinakam qahramonlik, katta voqeadir. Mazkur misolning o‘ziyoq mamlakatimizda inson qadri ulug‘lanayotganidan darak.

Shu o‘rinda qishlog‘imizdagi ba’zi bunyodkorlik ishlari haqida gapirmoqchiman. Avvalo, biz yashayotgan Forish tumanidagi O‘xum qishlog‘iga turizm qishlog‘i maqomi berildi. Har yili xorijlik yuzlab sayyoh keladi. Ko‘plab odamlar buning orqasidan daromadli bo‘ldi.

O‘xumning asfaltlanganiga qariyb qirq yil bo‘lgan yo‘llariga qaytadan asfalt yotqizildi. Yaroqsiz simyog‘ochlar o‘rniga temir-beton ustunlar o‘rnatildi. Uyali aloqa, internet kirib keldi.

Qishlog‘imiz, asosan, pastki qismidan to Aydarko‘lgacha bo‘lgan kengliklardan iborat. U yerlarda tik quduq qazib, dehqonchilik qilishga ruxsat berilgach, ko‘plab qishloqdoshlarimiz daromad manbaiga ega bo‘ldi. Endi uzoqqa borib ishlashga zarurat qolmadi. Erta bahordan kech kuzgacha qishloqdoshlarimiz dalalarda mehnat qilib, oilasiga qo‘shimcha daromad olib kiriyapti.

Shularni kuzata turib, bir oqsoqol sifatida yurtimiz kelajagi buyukligini tasavvur qilaman. Farzandlarim, nevaralarim bizdanda baxtli-saodatli yashashiga ishonaman.

Yangi saylanadigan deputatlarimizning dasturlari, rejalari amalga oshsa, hayotimiz yanada farovon bo‘ladi.

Forish tumani

YANGI AMALIYOT: SHAFFOFLIK VA TEJAMKORLIKKA HISSA QO‘SHDI



Dildora XO‘JAYEVA,
Mirzo Ulug‘bek tumanidagi
18-saylov uchastkasi raisi

Har bir jamiyat taraqqiyotidagi asosiy mezonlardan biri hayotiy qarorlarni ko‘pchilik bo‘lib qabul qilishdir. Qadimgi yunon faylasufi Suqrot “Gapir — men seni ko‘rayin!” degan edi. Odam saviyasi, dunyoqarashi nechog‘liq keng ekanini gapirgan paytida ko‘rsatadi. Nazarimda, saylov va unga tayyorgarlik jarayoni davlat va fuqaro orasidagi ana shu nozik holat qay darajada taraqqiy etganini afkor ommaga bor bo‘y-basti bilan ko‘rsatadi. Bunda davlatning naqadar adolatli ekaniyu fuqarolarning burchiga mas’uliyati ko‘rinadi. Bu jarayonda yurt taqdiri, farzandlar kelajagiga befarq bo‘lmagan inson jonbozlik ko‘rsatadi.

Kuni kecha bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga saylovda yurtdoshlarimiz faol ishtirok etganining guvohi bo‘ldim. Bu saylovda shaffof muhitni ta’minlash bilan birga aholiga qulaylik yaratish ham ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Jumladan, Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 12-oktabrdagi tegishli qaroriga muvofiq, Toshkent Shahridagi 10 ta saylov

uchastkasida elektron ovoz berish jarayoni tashkil etildi.

Ushbu tizim ko‘plab xorijiy davlatlar, xususan, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Braziliya, Singapur, Avstraliya va boshqa rivojlangan davlatlarda ham keng qo‘llanmoqda.

Elektron ovoz berish onlayn ovoz berishdan farq qiladi.

Onlayn ovoz berishda saylovchi shaxsiy kompyuteri orqali internetdan ovoz berishi mumkin bo‘lsa, elektron ovoz berishda saylovchi saylov uchastkasiga borib, elektron ovoz berish uskunasiidan foydalanadi.

Jumladan, Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 18-saylov uchastkasida ham an’anaviy uslub bilan birga elektron ovoz berish yo‘lga qo‘yildi. Ovoz berishga kelgan saylovchilar, ayniqsa, yoshlarning elektron qurilmaga qiziqishi yuqori bo‘ldi. Elektron ovoz berishning eski uslubdan farqli jihati shuki, saylovchi an’anaviy qog‘oz byulleten orqali emas, balki maxsus qurilmadagi elektron byulletendan foydalanib ovoz beradi.

Bu jarayonda saylov boshlanishidan 15 daqiqa oldin qurilmada hech qanday ovoz berilmagani haqida hisobot chiqarildi. Saylovchilar kelib ixtiyoriy ravishda bu qurilma orqali ovoz berdi. Saylovchi qurilmadan foydalansa, yonidagi maxsus tugmachaga oldida operator turadi. Ovoz berish jarayoni davom etayotgan bo‘lsa, tugma sariq bo‘lib yonadi. Saylovchi ovoz berib bo‘lganidan so‘ng elektron byulleten qurilmada saqlanadi va tugmachaga yashil yonadi. Undan so‘ng keyingi saylovchi ovoz berishi mumkin.

Qurilmaning qulayligi shundaki, avvalo, qog‘ozbozlikka chek qo‘yiladi. Bu yilgi saylov aralash tarzda o‘tayotgani bois, to‘rtta byulleten berilgan, har birini rangiga qarab ajratish kerak. Elektron qurilma saylov tugaganidan so‘ng byulletenlarni sanash jarayonida saylovchilar tomonidan qancha ovoz berilgani, kimlarga ovoz berilganini tayyor hisobot tarzida chiqarib beradi.

Eng muhimi, saylov jarayoni shaffoqligi ta’minlanadi.



MO‘YNOQQA JO‘SHQIN HAYOT KIRIB KELDI

Bu xayrli ishlar bardavomligi uchun ovoz berdim



Aydana AVTOMATOVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti talabasi

Mo‘ynoq tumanidagi 378-saylov uchastkasiga 27-oktabr kuni erta tongda borib, birinchilardan bo‘lib ovoz berdim. Albatta, birinchi marta mazkur siyosiy jarayonda ishtirok etganim sababli bir oz hayajonlandim. Boshqa tomondan esa tanlovim jamiyatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qilishini anglab, mas’uliyatim, o‘zimning ishonchim oldi. Shu tariqa o‘zim munosib deb bilgan partiya va nomzodlarga ovoz berdim.

Saylov instituti, ushbu jarayonda har birimizning tanlovimiz muhim ekanini tushungan holda har bir partiya va

deputatlikka nomzodning saylovchilar bilan uchrashuvini kuzatib bordim. Ularning Saylovoldi dasturi bilan to‘liq tanishib chiqdim.

Keksa-yu yosh, barcha ovoz berish uchun saylov uchastkasiga bordi. Bu har bir fuqaroning ertangi kuniga beparvo emasligidan dalolat. Shu singari men ham yorqin kelajagimiz, yaxshi hayot uchun ovoz berdim.

Mo‘ynoq tumani keyingi besh-olti yilda misli ko‘rilmagan darajada o‘zgardi. Qurilish, bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari natijasida jonajon Mo‘ynog‘imizga yangi hayot kirib keldi. Aeroport ochildi. Bu esa Mo‘ynoq tumani va Orol dengizini ko‘rgani keluvchilar uchun qulay imkoniyat. Shuningdek, yangidan yangi ishlab chiqarish korxonalari qad rostlab, yuzlab odamlar bandligi ta’minlandi.

Mo‘ynoq ko‘chalarda sayr qilib yurgan yurtdoshlarimning ko‘zida ertangi kunga ishonchni ko‘rib g‘ururlanaman. Orol dengizining qurigan tubida yangicha hayot boshlandi. Inson qadami tegmagan joylarda saksovl ekilib, hayotimiz qalqonlari kundan kun ko‘kka bo‘y cho‘zmoqda. Buni barchamiz quvonch bilan e’tirof etamiz.

Qoraqalpog‘istonlik yoshlarga qator imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jumladan, oliy ta’lim muassasalariga kirishimiz uchun o‘tgan yili ham, bu yil ham qo‘shimcha 10 mingga kvota ajratildi. Albatta, bu e’tibor, g‘amxo‘rlikka munosib bo‘lib, O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lida bor bilim va imkoniyatimizni safarbat etamiz.

SAYLOVDA XALQIMIZNING JIPSLIGI, YURT TAQDIRI VA KELAJAGIGA DAXLDORLIGI YAQQOL NAMOYON BO‘LDI

Boshlanishi 1-betda

Milliy saylov komissiyalari tizimi ham davr talabi va demokratik tamoyillar asosida takomillashirildi. Mamlakatimiz tarixida birinchi marta barcha viloyat va Toshkent shahrida doimiy asosda faoliyat yuritadigan hududiy saylov komissiyalari tuzildi. Fuqarolar konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanib, saylovda erkin ovoz berishi uchun yurtimizda 11 ming 28 ta, xorijiy mamlakatlarda 57 ta saylov uchastkasi faoliyat yuritdi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari milliy saylov tizimiga tobora keng joriy etilayotgani saylov jarayonining barcha ishtirokchisi uchun yangi qulayliklar yaratib, yuksak samara bermoqda. Bu yilgi saylovda “E-saylov” axborot tizimi ishga tushirilgani shunday muhim yangiliklardan biri bo‘ldi. Ushbu zamonaviy tizim yordamida saylov jarayonining ko‘plab tartib-taomillari raqamlashtirilib, byurokratik to‘siqlari keskin kamaytirildi va shaffofligi oshirildi. Tizim boshqa elektron platformalar bilan integratsiyaga qilingani saylov jarayonining avtomatlashtirilishi va saylovga oid ma’lumotlarni real vaqt rejimida olish, almashish imkonini berdi.

Saylov kuni saylov jarayonini real vaqt rejimida (onlayn) videotranslyatsiya qilish maqsadida barcha tuman va shaharlar hududida joylashgan muayyan saylov uchastkalarida videokameralar o‘rnatildi. Jumladan, Markaziy saylov komissiyasi matbuot markazidagi ekranlarda ham yurtimizning turli hududida bo‘lib o‘tgan saylov jarayonini bevosita kuzatish imkoniyati yaratildi. Kun davomida bu yerda turli brifinglar davom etdi. Jarayonni nafaqat mahalliy jurnalist va ekspertlar, balki xorijlik kuzatuvchilar, chet el ommaviy axborot vositalari vakillari ham kuzatib bordi.

— O‘zbekistondagi avvalgi saylovlarda ham qatnashganman, — deydi kuveytlik jurnalist Xolid Alsharqavi. — Bu galgi saylovni ham kuzatish imkoniga ega bo‘lganimdan juda mamnunman. Bir necha saylov uchastkalariga borib, jarayonni bevosita kuzatdim. Saylovchilar uchun barcha imkoniyat yuqori darajada yaratilgani, saylov uchastkalaridagi tartib-intizom, osoyishtalik e’tiborimni tortdi. Saylov tashkilotchilari o‘z vazifasini tartibli va tizimli asosda bajarayotgani guvohi bo‘ldim. Natijada saylovchilar uzog‘i bilan 5 daqiqada ovoz berib chiqib ketyapti. O‘zbekistonga kelishdan oldin saylov qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartirishlarni ham o‘rgandim. Bu yangilanishlarning barchasi saylovning ochiq, oshkora, tenglik va adolat tamoyillari asosida o‘tishiga zamin yaratdi.

Xotin-qizlarning davlat va jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini, saylov huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidan biridir. Mamlakatimizda bu boradagi islohotlar tufayli opa-singillarimizning jamiyat hayotidagi faolligi tobora oshmoqda. Xususan, bu galgi saylovda Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar orasida ayollar salmog‘i 44,7 foizni tashkil etdi. Bu milliy saylov tizimimiz tarixidagi eng yuqori ko‘rsatkichdir.

Jamiyatimizda gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan bunday islohotlar xalqaro ekspertlar





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 28-oktabr, 218-son

YAGONA — YANGI O'ZBEKISTON

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH

umumiy xulosasi shunday

JARAYON XALQ UCHUN QULAY VA SODDA TASHKIL ETILGAN



Emad Eldin Hasan Ahmad MUHAMMAD, Misr Arab Respublikasi Parlamenti senatori, "Ash-Shuruq" gazetasi bosh muharriri

Bugun muhim siyosiy jarayon. Saylovlar tufayli yana O'zbekistonga kelganimdan xursandman. Bilasizmi, yurtigingizni juda yaxshi ko'raman. O'zbekistonning

mehmondo'st xalqi, o'ziga xos ajoyib tabiati va umuman, barcha jihati menda doim yoqimli hislarni uyg'otadi.

Mamlakatingizga oldin ham ikki marta kelganman. Bu gal uchinchi marta mehmon bo'lib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga saylovlarni kuzatib bordim. Masalan, saylovdan bir kun oldin 3 ta saylov uchastkasida bo'ldim. Barchasida saylovlarga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rilganiga ishonch hosil qildim.

Xususan, saylovni o'tkazishda ishtirok etayotgan mas'ul xodimlar va kuzatuvchilar uchun maxsus joylar hozirlangan, zarur barcha qulaylik yaratilgan. Muhimi, shaffoflikni ta'minlash uchun kerakli tayyorgarlik ko'rilgan. Yurtigingizda bu yilgi saylovlar yangi — aralash saylov tizimida tashkil etildi. Mazkur amaliyot birinchi marta sinovdan o'tayotganiga qaramay, ovoz berish jarayoni qulay, saylovchilar uchun tushunarli va sodda tarzda tashkil etilgan.

Mening e'tiborimni tortgan yana bir jihat bor: saylov jarayonlarida qator yangi zamonaviy siyosiy texnologiyalardan ham

Mamlakatingizga oldin ham ikki marta kelganman. Bu gal uchinchi marta mehmon bo'lib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga saylovlarni kuzatib bordim. Masalan, saylovdan bir kun oldin 3 ta saylov uchastkasida bo'ldim. Barchasida saylovlarga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rilganiga ishonch hosil qildim.

foydalanilmoqda. Targ'ibot ishlari juda tartibli va namunali shaklda tashkil etilgan. Saylov jarayonida bu tashkiliy ishlarni o'zini oqladi deb o'ylayman. Chunki saylovchilar ancha faol bo'ldi. Buni avvalgi saylovlarda ham kuzatgan edim. Xususan, Prezident saylovlari va referendumda ham ishtirok etganman.

Mamlakatingizda siyosiy partiyalar va parlament tobora takomillashib boryapti deb o'ylayman. Bu, albatta, O'zbekistonda parlamentarizmning tizimli ravishda rivojlanib borayotganini ko'rsatadi.

Davlatimiz o'z oldiga ko'pgina ulkan maqsadlarni belgilab olgan va bugungi kunda shunga munosib ravishda ijtimoiy-siyosiy islohotlar olib borilmoqda. Buni mazkur saylovlar misolida ham ko'rish mumkin.

So'zim so'ngida mehmondo'st o'zbek xalqiga tashakkur aytaman.

USHBU QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING.



KATTA HAYOT YO'LIDAGI MUHIM TANLOVIMIZ

To'y kunini belgilab, bir oy avval FHDYOga borib nikohga ariza bergan kunimiz, eh-he, to'yni saylov kuniga belgilabsiz-da, deyilganida, avvaliga bir oz taraddudlandik. Keyin saylov kuni birga ovoz beramiz, deb so'z berdik. Bu fikr ikki tomonni ham xursand qildi.

27-oktabr kuni erta tongdanoq shu maqsad yo'lida avval kelining uyidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatni olib, Sho'rchi tumani Kushon mahallasidagi 546-saylov uchastkasiga bordik.

Saylov uchastkasiga kirib borishimiz bilan davlatimiz madhiyasi yangradi. Shundan keyin kuyovjo'ralar, kelining dugonalari, bizga bosh bo'lib kelgan nuroniyalar hamrohligida ovoz berdik. Saylov uchastkasi to'yxonaga aylanib ketdi.

Ovoz berishga kelgan yuz bilan yuzlashayotgan bobolar bizni ko'rib, baxtli

bo'lishimizni tilab, duoga qo'l ochdi. Ayniqsa, 95 yoshli Hazrat bobo Berdiyev farzand va nabiralari, chevaralarini ergashtirib kelib, ularni ham kelajakka daxldor bo'lishga undadi. Uning hayotiy saboqlari yig'ilganlarga namuna bo'ldi. Tashkilotchilar, mas'ullar kitoblarni sovg'a qildi.

Kelgusi besh yillik yosh oila sifatida nafaqat bizning, balki mamlakatimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli ham saylov jarayonida zo'r ishtiroq bilan qatnashdik. O'zimiz istagan, dasturlari kelajak uchun eng maqbul deb bilgan partiya va nomzodlarga ovoz berdik. Bu tanlovlar esa, albatta, kelajagimiz porloq bo'lishiga xizmat qiladi.

Bunyod BOBOXONOV va Gulshoda ESHQORAYEVA

Surxondaryo viloyati



TASHABBUSKOR NOMZODLARNI QO'LLAB-QUVVATLADIM

Jo'rabek OYTUG'DIYEV, Chiroqchi tumanidagi "Qalqama" oilaviy poliklinikasi shifokori

Yurtimizning qay bir go'shasida bo'lmang, bugun obodlik, farovonlik, bunyodkorlikka yo'g'rilgan ishlarga ko'zingiz tushadi. Xususan, ayni kunlarda nafaqat shahar va tuman markazlari, balki olis qishloqlarda ham katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Hududlar go'zal maskana aylanmoqda. Aholining turmush tarzi yaxshilaniy, bugungi kunidan rozi bo'lib, ertasiga ishonchi, ishtiroqi ortib bormoqda.

Bu shunchaki mubolag'a emas. Bir oz oldin borgan manzilingizga oradan uch-to'rt oy o'tib yana borsangiz, o'zgarishlarni ko'rib hayratda qolasiz. Misol uchun, chekka qishloqlardagi yo'llar ravonlashib, yaqindan

yangi umumta'lim maktablari, shifoxonalar kabi zamonaviy ijtimoiy soha obyektlari hamda ishlab chiqarish korxonalari bunyod etilayotir.

Buxoroning Olot tumanidanman. Qashqadaryoning olis hududiga ishga taklif qilishganida, rosti, ancha xavotirda edim. Shifoxona tog' etagida joylashganini eshitib, elektr ta'minoti bir kun bo'lsa, uch kun yo'q, gaz bormagan, yo'llari abgor ahvoldagi joy ko'z oldimga kelgandi. Shunday bo'lsa-da, tavakkal qilib ishga bordim. Ishonasizmi, borib hayratda qoldim. Dastlab tog' yo'lidan yura boshlaganimizda biz ko'rgan ravon va tekis asfalt yo'l hech bir shaharnikidan qolishmasdi. Yangi barpo etilgan oilaviy shifoxonadagi sharoitlarni ko'rib, ko'zim quvnadi. Gaz umuman muammo emas. Aholi gaz to'ldirilgan ballonlar bilan muntazam

ta'minlanyapti. Qishloq maktabi zamonaviy tipda qurilgan.

Keyingi yillarda shifokorlarga qator qulayliklar yaratildi. O'lis hududida ishlayotganim uchun men ham qator imtiyozlarga egaman. Bu esa ishimizni yanada yengillashtiryapti. Hozir oilam bilan tog'li qishloqda istiqomat qilayapman. Yashashimizda hech bir muammo yo'q. Qisqasi, bu manzil boshqa joylardan qolishmaydigan darajada obod bo'lib bormoqda. Shu joyga kelib, aholiga yordamim tegayotganidan mamnunman.

Keyingi saylovda ham aynan mana shunday islohotlarga hissa qo'shadigan, tashabbuskor nomzodlarga ovoz berdim. Albatta, odamlarning ishonchi deputatlarni yanada mas'uliyatli qilib, yurt farovonligi uchun doim oldinga chorlaydi.

ERTANGI KUNIMIZ BUGUNGI QARORIMIZGA BOG'LIQ

Hayitboy HASANOV, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi

Taraqqiyparvar xalqimiz, vatanimiz taqdiri uchun har birimiz mas'ulmiz. "Mening tanlovim — obod vatanim" shiori ostida o'tgan kechagi saylovlarda bu jihat yana bir bor o'z tasdiq'ini topdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga saylovda barcha mahalladoshlarimiz qatorida 755 yigit-qiz ham faol ishtirok etdi. Ularning 121 nafari birinchi bor konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanib ovoz berdi.

So'x tumani qo'shni Qirg'iziston bilan chegaradosh anklav hudud. Shu bois, turli yillarda bu yerdagilar nisbatan qiyin sharoitda yashaganini yoshi ulug'lar aytadi. Hozirgi turmush tarzimiz mutlaqo boshqacha. Keyingi yillarda infratuzilma tarmoqlari qurish, aholi bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish borasida salmoqli ishlarni qilinayapti.

Birgina "Sarikanda" mahalla fuqarolar yig'inida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab yangi loyihalar amalga oshirildi. Buning hisobiga ishsiz, mehnat migratsiyasidan qaytgan yuzdan ortiq yoshlarning bandligi ta'minlandi.

O'zbekiston — yoshlar mamlakati. Yurt kelajagini bunyod etishga bel bog'lagan fidoyi va ijodkor yoshlarni rag'batlantirish maqsadida "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. Yigitlarimiz qalbidagi vatanparvarlik tuyg'usini yanada yuksaltirish, mardlik, jasorat, sadoqat kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilayotgan "Mard o'g'lon" davlat mukofoti ham ana shu e'tibor va g'amxo'rlikning amaliy ko'rinishidir.

Yuksak intellektual salohiyatli, kitobga oshino, bilimli avlodni voyaga yetkazish



maqsadida "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovi tashkil etildi va mamlakatimiz bo'ylab eng omalashgan tanlovga aylandi. "Besh tashabbus" olimpiadasi doirasida o'tkazib kelinayotgan sport bellashuvlari yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, iqtidorlarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatini beryapti. Yoshlarning biznes tashabbuslari, g'oya va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish hamda qo'llab-quvvatlash, band bo'lmaganlarni mehnat bozorida talab yuqori mutaxassislik va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan sarikandalik yoshlar ham samarali foydalanmoqda.

Kechagi saylovlarda mahallamiz yoshlari har jihatdan faol, uyushqoqlik bilan ishtirok etdi. Chunki ular ertangi kunimiz bugungi tanlovimizga bog'liq ekanini yaxshi anglaydi.

So'x tumani



YOSHLAR FAOL ISHTIROK ETDI

Masturaxon NABIXONOVA, Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga saylovlar Namangan viloyatida ham uyushqoqlik bilan o'tdi. Mazkur siyosiy jarayonda biz, yoshlar faol ishtirok etganimizdan xursandmiz.

Mamlakatimizda iste'dodli yoshlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, iqtidorini to'laqonli namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Natijada yuksak marallarni zabt etayotgan yoshlar safi yildan yilga kengayib bormoqda.

Ayni vaqtda talabam. Shu bilan birga, yurtimizda sog'lom ma'naviy muhitni qurish, yosh avlodni vatanparvarlik, istiqloq g'oyalari sadoqat, milliy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarga hissa qo'shish uchun doimiy izlanishdaman. Faol yoshlardan biri sifatida imkoniyati cheklangan bolalar, iqtidorli va iste'dodli talabalar, xotin-qizlar uchun 100 dan ortiq ijtimoiy loyihalar tashkil etdim.

Masalan, talaba qizlar faolligini oshirish, gender tenglik siyosatini keng targ'ib qilish va jamiyatda xotin-qizlarning o'rni yanada mustahkamlash maqsadida "Girls for girls" ta'lim almashinuv dasturini yo'lga qo'yish orqali 500 dan ortiq qizni ushbu loyihaga jalb qildim.

Bu kabi izlanishlarim samara bermoqda. Xususan, o'tgan yili Oliy ta'lim, fan



va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkazilgan "Islohotlar bilimdoni" ko'rik-tanlovida 3-o'rinni egalladim. Joriy yilda "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandim. Bular kuch-g'ayrat bag'ishlash barobarida zimmamga katta mas'uliyat ham yukladi.

Tengdosh dugonalarim bilan o'zimiz yashayotgan hududdagi 83-saylov uchastkasiga borib, yurtimiz kelajagi uchun ovoz berdik. Partiyalar hamda nomzodlar Saylovoldi dasturi bilan yaqindan tanishish asnosida olgan xulosalarimga asosan o'zim ma'qul deb topgan partiya va nomzodni qo'llab-quvvatlaganimdan xursandman.

Qo'sh sahifani Avazbek XUDOYQULOV tayyorladi.

Islahot odimlari

YANGI QIYOFADAGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI

yurt tinchligiga hissa qo‘shish orqali xalqni rozi qilmoqda



Po'lat BOBOJONOV,
O‘zbekiston Respublikasi
ichki ishlar vaziri,
general-leytenant

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizdagi inson qadri uchun boshlangan islohotlar ortga qaytmas tus oldi. Mazkur yangilanish jarayoni, avvalo, *“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”* degan ezu g‘oyani o‘zida mujassam etdi. Bugun mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimidagi tub islohotlar aynan shu xalqparvar g‘oya asosida amalga oshirilmoqda.

Bunday ezu g‘oya asosida ishlashni islohotlar avvalidayoq o‘z burchimiz etib belgilab olgan edik. Jumladan, o‘zgarishlarning birinchi bosqichida ichki ishlar organlarining tuzilmasi maqbullashtirildi. Xalq xizmatiga qulay va oson tuzilmaga aylantirildi. Ayni paytda barcha bo‘g‘in rahbarlarining xalq deputatlari kengashlari va Oliy Majlis Senati oldida hisobdorligi belgilandi. Shuning o‘ziyoq xalq manfaatli bilan bevosita hisoblashish tizimini yaratdi. Qolaversa, shaxsiy tarkibning 85 foizi quyi bo‘g‘inga tushirilib, aholiga yaqinlashtirildi. Muhimi, rahbarlar xalq orasiga kirib, bevosita muloqot qiladigan bo‘ldi. Mazkur amaliyot mavjud muammolar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish va ularga tezkor yechim topishga xizmat qilmoqda. Shuning o‘ziyoq davlat idoralarining xalqqa xizmat qilishini ta‘minladi.

Yana bir muhim jihat shuki, joylarda ichki ishlar idoralari boshliqlari 3-sektorga rahbar etib belgilandi. Shu orqali ular tegishli sektordagi muammolarni hal qilish asosida aholining dardu tashvishi bilan yaqindan tanishmoqda. Natijada mazkur sektor rahbarlari ishsiz fuqarolar bandligini ta‘minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali huquqbuzarliklarning oldini olishga hissa qo‘shyapti.

Taraddud

Har yili sovuq kunlar yaqinlashishi bilan mavsumga jiddiy tayyorgarlik boshlanadi. Chunki oldindan isitish, elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gaz bilan ta‘minlash choralari ko‘rilmasa, harorat sovit ketganda bu borada ko‘plab muammolar kelib chiqishi tabiiy. Yog‘in-sochinli kunlarda uy tomidan inchoq o‘tib tursa yoki boshqa nosozlik yuz bersa, bartaraf etish qiyin kechadi. Qishloq sharoitida esa ko‘mir-o‘tin g‘amlash muhim.

Bu kabi dolzarb masalalar Farg‘ona viloyatida qanday hal etilyapti? Aholining bu boradagi talab va ehtiyojini qondirish uchun qanday chora-tadbirlar belgilangan?

— Ko‘p kvartirali turar joy fondini kuz-qish mavsumiga tayyorlash maqsadida shu kunga qadar 62 ta uyning tom qismi, 230 ta kirish yo‘lagi, 298 ta elektr taqsimlovchi shit ta‘mirdan chiqarilgan, — deydi Farg‘ona viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Avazbek Madaminov. — Asosiy e‘tibor ko‘p kvartirali uylarning yerto‘la va ichki qismidagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini ta‘mirlash, temir eshik, kodli qulf, framuga oyna hamda energiyatejamkor sensorli lampalar o‘rnatishga qaratilyapti. Shu kunga qadar 3722 ko‘p qavatli uy-joyni elektr energiyasi bilan ta‘minlovchi 4117 ta elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyekti to‘liq xatlodan o‘tkazilib, manzilli ro‘yxat asosida “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga bo‘lindi. “Qizil” toifaga kiritilgan elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlaridan 1032



olish bilan birga holatni oldindan baholash imkonini ham beradi. Albatta, bunday muhim vazifalarni bajarishda chuqur ilmiy asosga tayanish talab etiladi. Shu bois, vazirlik tizimida tashkil etilgan Kriminologiya tadqiqot instituti aynan jinoyatlar sodir etilishining yangi ushblarini va kriminogen vaziyatni ilmiy tahlil qilish bilan shug‘ullanmoqda.

Ana shunday ilmiy asos mavjud bo‘lgan tizim tufayli barcha hududda birdek yangicha tizimda ish yuritilyapti. Davlatimiz rahbarining topshiriqlari asosida mahallalarda xavfsiz muhit yaratilyapti. Buning uchun har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinmoqda. O‘sha hududda faoliyat yuritayotgan mas‘ullar bunday xususiyatni, albatta, yaxshi baholay oladi. Shu bois, hokimlar va sektor rahbarlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini kunlik tashkil etayotgani mazkur jarayonning hayotiyligini ta‘minlamoqda. Asosiy e‘tibor aholi orasida jinoyatchilikka nisbatan murosasiz

shuki, hududlarda uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar)dan foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu tajribaga Buxoro viloyati hududiy ichki ishlar organlarining 150 nafar profilaktika katta inspektori jalb etilgan. Ular o‘ziga biriktirilgan hududdagi vaziyatni nazorat qilish uchun dron yordamidan foydalanadi. Ushbu amaliyot samara bersa, uni ham mamlakatimiz bo‘ylab tatbiq etish rejalashtirilgan.

Namangan viloyatidagi yonma-yon joylashgan, kriminogen vaziyati murakkab mahallalar mikrohududlarga ajratildi hamda ularida profilaktika bosh inspektori va profilaktika kichik inspektori lavozimi joriy etildi. Ushbu yangilik ham mahallalarda aholi o‘soyishatligini ta‘minlash va jamoat tartibini saqlashda samara beradi deb umid qilamiz. Chunki bu kabi amaliyotlar o‘zini oqlayapti. Masalan, Guliston shahridagi Bog‘ishamol va Taraqqiyot mahallalarida sinovdan o‘tgan ko‘p qavatli



Shahar Qoraboyev olgan suratlar.

shahridagi “Ho‘qandi latif” boshqaruv-servis kompaniyasi 125 ta ko‘p qavatli uyga xizmat ko‘rsatib keladi. Bu yerda iste‘molchilar talabi va istaklari asosida muammolarni o‘rganish hamda bartaraf etish, qo‘shimcha xizmat turlarini joriy etish borasidagi ishlar ko‘lami kengaydi, yangi va qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish turlari tashkil etildi.

— Ayni paytda 5 ta kommunal xizmati ko‘rsatish brigadasi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, mavsum tadorigi doirasida “Rayhon”, “Yangi-obod”, “Turkiston” mahalla fuqarolar yig‘inidagi ko‘p qavatli uylarning 8837 kvadrat metr tom qismi, 17 ta uyning ichki kanalizatsiya tizimi ta‘mirlandi, — deydi boshqaruv-servis kompaniyasi rahbari Ma‘mirjon Mamajonov. — Dispetcherlik xizmatiga kelib tushgan 1139 ta murojaat o‘rganilib, aniqlangan muammo bartaraf etildi. Kirish yo‘laklarini ta‘mirlash, energiyatejamkor tungi chiroqlar o‘rnatish, ichki yo‘l va yo‘laklarni asfaltlash bilan bog‘liq qurilish, ta‘mirlash va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Buning uchun 2 milliard 480 million so‘mdan ortiq mablag‘ sarflandi. Boshqaruv-servis



uylarning kirish-chiqish joylarini videonazorat qilish vositalari bilan jihozlash tajribasi endi boshqa joylarga ham tatbiq etilmoqda.

Hududlardagi jinoyatchilikning oldini olishda mahalla profilaktika inspektorining o‘rni juda muhim. Shu bois, yaxshi faoliyat yuritishi uchun ularga qator qulaylik va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jumladan, har bir mahallaga kamida bittadan profilaktika inspektori biriktirilgan. Ular kecha-yu kunduz aholining xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarini hal eta olishi uchun doim mahalla hududida bo‘lishi kerak. Shu maqsadda soha vakillariga mahallaning o‘zida 6552 ta xizmat uyi berildi. Bundan tashqari, avtomashina xarid qilishi uchun imtiyozli kreditlar ajratildi.

Mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi yaratildi. Unga ko‘ra, mahallalarda xavfsiz muhit vujudga keltirish uchun profilaktika inspektori, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi huquqbuzarlik sodir etish va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarning muammolarini hal etish bo‘yicha manzilli ishlarni bajarilmoqda. Bu borada ularga ijtimoiy xodim, soliq inspektori, bandlik xodimi, inspektor-psixolog, tibbiyot xodimi va boshqa mutasaddilar yaqindan ko‘maklashyapti.

Jamoat xavfsizligini inson omilini isitiso etgan holda ta‘minlash masalasi ham vazirlik rahbariyatining diqqat markazida. Shu maqsadda eng olis hududlarda ham jinoyatlar bo‘yicha xabarlarini qayd qilishning 102 avtomatlashtirilgan tizimi joriy etildi. Ma‘muriy huquqbuzarliklar va yo‘l harakati

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangani, ijtimoiy tarmoqlar ommalashgani sayin aholi orasida kiberjinoyatlardan jabrlanayotganlar soni ham tobora ko‘paymoqda. Shu bois, yurtdoshlarimizni ogohlikka chaqirish maqsadida viktinologik profilaktika tadbirlarini kuchaytirdik.

qoidabuzarliklari bo‘yicha bayonnomalarni elektron rasmiylashtirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Ko‘chalardagi xavfsizlik holatini kuzatish uchun viloyat markazlarida 13 ta tezkor boshqaruv markazi hamda tuman (shahar) larda 130 ta monitoring markazi tashkil etilib, ular faoliyatiga 19 mingdan ziyod videokamera integratsiya qilindi.

Inson huquqlarini ta‘minlash ham ustuvor vazifalarimizdan. Hozir jazoni jiro etish muassasalarida mahkumlar bilan faqat videokamera nazorati ostida muloqot qilinadi. Barcha tergov xonalariga videokameralar o‘rnatilgan. “Gezella oynasi” bilan jihozlangan va videokonferens aloqa tizimiga ulangan 57 ta maxsus tergov xonasi tashkil etilgan.

Bu ham tergov harakatlarini xolisona olib borish garovidir. Biz faqat nazorat vositalari bilangina cheklanmayapmiz. Avvalo, shaxsiy tarkibni insonparvarlik, vatanparvarlik, burchga sadoqat, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash choralarini ko‘ryapmiz. Bu borada ma‘naviyat va ma‘rifat darslari, turli madaniyima‘riy tadbirlar, yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar samara bermiqda.

Zamon talablaridan kelib chiqib, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash amaliyoti to‘liq raqamlashtirildi. Tizimda fuqarolarni qabul qilish uchun 262 ta xona tashkil etildi. Bugun ichki ishlar organlari xodimlari bilan bog‘liq holatlarda (1102) hamda qiyin vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlar (1259 va 1286), sayyohlar (1173) va odam savdosidan jabrlangan fuqarolarga (301-01-01) huquqiy va tezkor psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha qisqa raqamli “ishonch telefonlari” ishlab turibdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangani, ijtimoiy tarmoqlar ommalashgani sayin aholi orasida kiberjinoyatlardan jabrlanayotganlar soni ham tobora ko‘paymoqda. Shu bois, yurtdoshlarimizni ogohlikka chaqirish maqsadida viktinologik profilaktika tadbirlarini kuchaytirdik. Ushbu tadbirlar jarayonida bank plastik kartalaridan xavfsiz foydalanish yo‘l-yo‘riqlari, kiberjinoyatchilardan ehtiyot bo‘lish choralari aholiga har tomonlama tushuntirilyapti.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash, bu borada tezkorlikni oshirish uchun patrul-post xizmatida avtopatrullar soni ko‘paytirilib, shaxsiy tarkibning 37,8 foizi avtopatrul yo‘nalishiga jalb etildi. Turli ko‘ngilsizliklar, hatto odamlarning hayotdan ko‘z yumishiga sabab bo‘layotgan avtohalokatlar yuz berayotgani ko‘pchilikni jiddiy tashvishga solayotir. Bunday holatlarning oldini olish uchun yo‘l-patrul xizmati xodimlari 4629 ta bodikamera, 1448 ta alkotester, huquqbuzarlikni qayd etuvchi 4365 ta planshet hamda zamonaviy patrul avtomashinalari bilan ta‘minlandi.

Umumta‘lim maktablarida “Yo‘l harakati xavfsizligi” o‘quv xonalari, mahalla va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida esa yo‘l harakati qoidalarini targ‘ib etuvchi bolalar maydonchalari tashkil etildi. Shu tariqa bolalarda yo‘larda harakatlanish madaniyatini shakllantirishning yaxlit tizimi yaratildi.

Yangi O‘zbekistonda barcha yo‘lida ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhasida ulkan tarixiy o‘zgarishlar amalga oshirilmqda. Mazkur yangilanishlar jarayonida Prezidentimiz farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida qayd etilgan *xalq xizmatidagi adolati va zamonaviy davlatni barpo etish* g‘oyasi alohida o‘rin egallagan. Ushbu g‘oya asosida yangi O‘zbekistonda yangi ichki ishlar organlari shakllantirilmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlari *vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishni oliy burchi* deb biladi. Ular ana shu ezu maqsad yo‘lida bor kuch, bilim va salohiyatini ayamaydi.

Mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar samaradorligi tinchlik-osoyishtalikni saqlash, qonun ustuvorligini ta‘minlashga bog‘liq. Prezidentimiz *“Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo‘lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim, bu — ichki ishlar sohasi, desak ayni haqiqat bo‘ladi”*, deya xodimlarimizga yuksak ishonch bildirdi. Vazirlik shaxsiy tarkibi bu ishonchdan ruhlanib, mamlakatimizda demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimizni rozi qilish, tinchlik va barqarorlik, huquqatibotni mustahkamlashga munosib hissasini qo‘shishda davom etadi.

QISHNING HAR KUNI, HAR DAQIQASI SINOV

boshqaruv-servis kompaniyasi rahbari Adolatxon Karimova. — Sovuq kunlarda aholini issiqlik bilan ta‘minlash birinchi masalaga aylanadi. Lekin mana olti yildirki, markazlashgan issiqlik tizimiga ega emasmiz. Muammolar yuzasidan mutasaddilarga bir necha bor murojaat qilganmiz.

Ammo masalaga ijobiy yechim topilganicha yo‘q. Qirguli mavzesidagi issiqlik tarmoqlari o‘tgan asrning yetimshinchi yillarida qurilgan bo‘lib, tarmoqlar ma‘nan eskirgan, ta‘mirlalab holga kelib qolgani uchun issiqlik energiyasi ortiqcha yo‘qotilishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, ko‘p qavatli uylarga faqat issiq suv yetkazib berilyapti.

— Bugun loyiha qiymati 39,9 million dollar bo‘lgan dastur asosida “Qirguli issiqlik manbai” MCHJga qarashli 76 kilometr issiqlik

yo‘qotishlar sarfi 32,44 milliard so‘mga kamayadi. Iste‘molchilar tabiiy gazdan 10,9 milliard so‘m, elektr energiyasidan 7,1 milliard so‘m iqtisod qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kuz-qish mavsumiga hozirlik jarayonida elektr va tabiiy gaz resurslaridan samarali foydalanishga e‘tibor oshdi. Tahillarga ko‘ra, yil yakuniga qadar 1 milliard 534 million kilovatt-soat elektr energiyasi hamda 684 million 126 ming kub metr tabiiy gazni tejash rejalashtirilgan.

— Bugunga qadar ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralariga 17 megavatt, tadbirkorlik subyektlariga 47,8 megavatt hamda aholi xonadonlariga 9,8 megavattli quyosh panellari o‘rnatilishi hisobiga 64,6 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilmqda, — deydi bosh mutaxassis Ilhomjon Eshimboyev. — Bundan tashqari, ijtimoiy soha va 560 xonadonga 159,5 ming litrl geliokollektor o‘rnatilishi hisobiga 4,8 million kilovatt-soat elektr energiyasi iqtisod qilinadi. Shuningdek, 2337 ta subyektda reaktiv quvvatni kompensatsiya qiluvchi kondensator batareyalar o‘rnatildi. Barcha tashkiliy va texnik tadbirlar amalga oshirilishi hisobiga mavsumda 135,3 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejalandi. Shu kunga qadar ijtimoiy soha, tadbirkorlik subyektlari va aholi xonadonlariga 75,4 megavattli quyosh panellari o‘rnatildi.

Qisqasi, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha rejalashtirilgan ishlarni o‘z vaqtida yakunlash hamda mavsumni betalafot o‘tkazish hozir har qachongidan dolzarb masala. Boisi, qishning har kuni, har daqiqasi sinov.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda Qirguli mavzesida joylashgan 317 ta ko‘p qavatli uy va 41 ta ijtimoiy soha obyektida individual issiqlik punktlari o‘rnatish rejalashtirilgan, — deydi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi bosh mutaxassisi Sardorxon Sodiqxonov. — Hozir Osiyo taraqqiyot banki va boshqa tegishli vazirliklar bilan tashkil etilayotgan loyihalarni amalga oshirish yuzasidan dastlabki muvokaralar olib borilmoqda. Loyiha hisobida 35 ming kishi uzluksiz issiqlik energiyasi va issiq suv bilan ta‘minlanadi. Issiqlik tarmog‘idagi



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 28-oktabr, 218-son

Mamlakatimizda barcha sohalaridagi keng ko‘lamli islohotlar izchilligi yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan bevosita bog‘liq. Zero, zamon talabidagi yuksak salohiyatli, bilimli, mas‘uliyatli, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish eng dolzarb masalalardan biridir. Ishlab chiqilayotgan istiqbolli dasturlarning asl negizida ham ta‘lim sifatini xalqaro talablarga moslashtirish maqsadi yotibdi. Ayniqsa, xalq xo‘jaligining barcha sohalarini jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri milliy iqtisodiyotimizning yuksalishiga asos bo‘lmoqda.



Qurbonali XOLIQOV,
texnika fanlari doktori,
professor

Bundan ko‘zlangan maqsad moddiy va ma‘naviy manbalarni ishlab chiqarishni dinamik hamda proporsional tarzda rivojlantirish, ilm-fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, unumdorligini oshirish va zaxiralarini aniqlash hamda uni modernizatsiya qilish. Bunda mavjud xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlab, iste‘molga tayyor mahsulotlar turini ko‘paytirish bilan birga eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar salmog‘ini oshirish, o‘z navbatida, mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatlashuv salohiyatini ta‘minlash orqali iqtisodiyotni isloh etish va uni modernizatsiya qilish, eng asosiysi, import o‘rni bosuvchi mahsulotlarni mahalliyilashirishdan iborat.

Qabul qilinayotgan dasturlar va ularni amalga oshirishda yaratilgan moddiy manbalar va imkoniyatlarning barchasi ertangi kun taraqqiyoti uchun mas‘uliyatni zimmasiga oladigan yuqori malakali mutaxassislar uchundir. Chunki chuqur ilmiy tadqiqotlarga, tahlillarga tayangan holda amalga oshirilayotgan

Oliy ta‘limdagi yangilanishlar

ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI

malakali kadrlar tayyorlashda
muhim bo‘g‘inga aylanadi

islohotlar, shiddat bilan o‘rib borayotgan yangicha o‘zgarishlar zamon bilan hamnafas kadrlarga ehtiyoj sezmoqda.

Shuning uchun ta‘lim tizimidagi islohotlar mohiyatan zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan, barcha zamonaviy kompetensiyalarga ega oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining barcha tarmoqlari raqamli tizimga o‘tmog‘da. Bu esa raqamli transformatsiya axborot texnologiyalari va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalaridagi muammolarni hal qilishga qodir qo‘shimcha mutaxassislarni talab qiladi.

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yilning 20-iyun kuni “Inno” innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparkida muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirishga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda ham muhandislik sohalarini uchun mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta‘lim muassasalari faoliyati tanqidiy o‘rganildi. Mas‘ularga kelgusida amalga oshirish lozim bo‘lgan qator vazifalar belgilab berildi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida sanoatda tannarxni kamaytirish muhim masalalardan bir ekani haqida so‘z bordi. Ta‘kidlanishicha, xorijiy oliygohlarda “tannarx muhandisligi” (kost injiniring) yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi. “Qiyoslash muhandisligi” (benchmarking) orqali eng yaxshi amaliyot va yutuqlarni tahlil qilib, ulardan andaza olib, ishlab chiqarishga joriy qilish o‘rgatildi. “Qayta muhandislik” (reversiv injiniring) tayyor mahsulotni olib, ishlab mexanizmini bo‘laklarga bo‘lib, mualliflik huquqini buzmaganda holda o‘xshash mahsulot yaratishni o‘rgatadi.

Yig‘ilishda, shuningdek, mahalliy sanoat tarmoqlari katta mablag‘ sarflab, ishchilarini xorijda o‘qitishga yoki chetdan mutaxassis olib kelishga majbur bo‘layotgani qayd etildi. Xorijdagi ilg‘or tajribalardan foydalanib, mukammal mutaxassislarni o‘zimizda tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish muhim masala sifatida belgilandi.

Endi muhandislik oliygohlarining barcha hamkor korxonalarida kafedralar filiallari faoliyati va dual ta‘lim tizimi yo‘lga qo‘yilishi ko‘zda tutildi. Talabalar bitiruv kursidagi



ta‘lim jarayonlarini, shuningdek, amaliyotini to‘liq hamkor korxonalar ham ilm, ham tajribaga ega bo‘lib davom ettirishi bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Bunda muhandislik oliygohlarida ilg‘or muhandislik maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ikki yillik amaliy magistratura dasturlari bo‘yicha o‘qitilishi muvofiqlashtirildi.

Ta‘lim jarayonidagi barcha zarur shart-sharoitlarni ta‘minlovchi yuqori texnologiyali korxonalar bilan hamkorlikda yangi turdagi kadrlar tayyorlash tizimi, ya‘ni ilg‘or muhandislik maktablarini yaratish bo‘yicha vazifalar topshirilgan. Innovatsion yechimlar ishlab chiquvchi muhandislar tayyorlash, muammolarni o‘z vaqtida hal etish, ilg‘or ishlanmalar va tadqiqotlar bilan yaqindan qo‘llab-quvvatlash orqali jahon darajasiga mos salohiyatli kadrlar yetishtirish bugunning asosiy vazifalaridan biriga aylangan.

Muhandislik oliygohlarida yuqori texnologiyali korxonalar bilan hamkorlikda

Ilg‘or muhandislik maktablari faoliyati “tarmoq — korxona — oliygoh” zanjiri asosida tashkil etilishi yaxshi samara bermoqda.

Namangan to‘qimachilik sanoati institutida ham to‘qimachilik, bo‘yash-pardozlash texnologiyalari va ularni tadqiq qilish laboratoriyalaridan iborat ilg‘or to‘qimachilik muhandisligi maktabi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Institut va to‘qimachilik korxonalar filiali tashkil etildi. Ushbu maktabda tinglovchilar eng zamonaviy moddiy-texnik bazada amaliy tajribalarini mustazam shakllantirib boradi.

Maktabda talabalar to‘qimachilik talalaridan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha

bo‘lgan jarayonlardagi ilg‘or texnologiyalarni korxona mutaxassislaridan o‘rganib, institutda olgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish orqali chuqur o‘zlashtiradi. Bundan tashqari, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda ishtirok etish hamda ilmiy innovatsion tadqiqot ishlari olib borgan holda kasbiy ko‘nikmalarini ham yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Institutda ikki yillik individual ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitishning amaliy magistratura dasturlari yo‘lga qo‘yildi. Birinchi yili talabalar korxonalaridagi mavjud texnologiyalarni mukammal o‘zlashtiradi, korxona buyurtmasi asosida yangi mahsulotlar loyihalashtiradi, ilmiy izlanishlar o‘tkazadi va chuqurlashtirilgan modul dasturlar asosida o‘qitiladi. Ikkinchi yilda yangi mahsulotlar bo‘yicha tajriba-konstruktorlik namunalarini yaratish bilan bog‘liq texnologik jarayonlarni korxonalarida sinovdan o‘tkazadi.



Turli yo‘nalishlardagi talabalarning o‘qishini ilg‘or muhandislik maktabi filialida birgalikda tashkil etish, ya‘ni fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi amaliyoti joriy etildi. Korxonada muhandis texnolog va mexaniklar bir loyiha doirasida ishlaydi. Shuningdek, bo‘yash-pardozlash bo‘limida muhandis texnologlar bilan kimyo texnologiyasi mutaxassislari ishlarni muvofiqlashtirish samarali ekani ma‘lum bo‘ldi. Bunda texnologik mahsulotlar va innovatsiyalarni “g‘oyadan bozorga” tamoyili ostida ishlab chiqarishning zamonaviy usul va vositalarini keng joriy etish bo‘yicha to‘plangan tajribalar malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratildi.

Ilg‘or muhandislik maktabida jamiyat muammolariga xavfsiz yechim topish uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarish, texnologik jihoz-uskunalar va moslamalarni ta‘mirlash, ularni unifikatsiyalash, loyihalashtirishda ilmiy-amaliy, iqtisodiy, ijtimoiy va amaliy bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalari shakllantirilmoqda.

Institutda bakalavriat yo‘nalishida “4+2” yangi o‘qitish tizimi joriy etilishi natijasida nazariya va amaliyotni birga olib borish samara bermoqda. Korxona jihozlari va texnologiyalaridan bevosita o‘quv jarayonida foydalanish orqali talabalarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga, korxona va ishlab chiqarish sharoitlariga ijtimoiy moslashuviga erishilmoqda. Bu orqali kelgusida yuqori kasbiy ko‘nikmalar shakllangan talabalarni ilg‘or muhandislik maktabiga saralab olish imkoniyatlari yaratiladi.

Ta‘lim sifatini ta‘minlash uchun zamonaviy o‘quv dasturlarini imitatsiya qila oladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, interfaol shakllarni, simulatsion usullarni hamda loyihaviy usul va vositalarni qo‘llash orqali “ustoz-shogird” tizimi samarali yo‘lga qo‘yildi.


Muhandislik sohalarini uchun mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta‘lim muassasalarida ilg‘or muhandislik maktablari faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shadigan malakali mutaxassislar tayyorlab beriladi.

O‘ramizdagi odamlar

INSON UMR YO‘LI KARITASINI

o‘zi chizadi

Dunyo yaralibdiki, inson mudom kurashib yashaydi, baxtda intiladi. Ulg‘aygach, hayot yo‘llarida paydo bo‘lgan muammo va to‘siqlardan zada bo‘lgan paytlarda ota-onasi bag‘rida o‘tgan beg‘ubor bolaligini, yoshligini qo‘msab qoladi. Darhaqiqat, hammamizning bolalimiz, tashvishsiz kunlarimizning eng ardoqli xotiralari ongu shuurimizni doim yoritib turadi. Lekin shunday odamlar borki, ularning kurashi ayni bolalikdan boshlanadi.



Xurram 1980-yilda Forish tumanining xushmanzara Qo‘lba qishlog‘ida tug‘ildi. Ammo bir yoshga to‘lib, atak-chechak qila boshlaganida bedavo dard yopishdi. Poliomiyeitiga chalindi. Bolaning ikkala oyog‘i falaj bo‘lib qoldi. Taqdir Xurramga bir umr to‘shakka mixlanib yotish hukmini o‘qigan edi. Biroq u dardga taslim bo‘lmadi. Xatti-harakati bilan umr yo‘lini o‘zgartirdi. Hayotda inson uchun jismoniy nuqson ahamiyatga ega emasligini isbotladi.

Otasi farzandi bilimli bo‘lishi uchun Xurramni Toshkentdagi nogironligi bor bolalarni ham davolab, ham o‘qitadigan muassasaga joylashtirdi.

— Esimni tanibmanki, kunlarim muttasil dori-darmon, emlash bilan o‘tardi. Jisminim

emlashlardan bezillab qolgandi, — deya xotirlaydi Xurram Tangirov.

U Toshkentdagi maktab-internatda o‘qib yurgan kezlari o‘ziga o‘xshab oyog‘i, qo‘li falaj bo‘lgan, tug‘ma nogironligi bor, aqli noqis bolalarni ham ko‘rdi. Ular Xurramni fikrlash, o‘z hayotiga chetdan turib nazar tashlashga undardi. Shunday pallada u “Oyog‘im ishlamayotgan bo‘lsa, qo‘lim ishlamaypti-ku. Aql-hushim joyida. O‘qishim, ko‘proq o‘qishim kerak”, derdi o‘ziga o‘zi.

Bolaning bo‘sh vaqti deyarli bo‘lmasdi. Darslardan keyin maktab-internat kutubxonasida o‘tirib navbatdagi saboqlarga tayyorlanar, ozgina vaqt qolsa, badiiy asarlar mutolaasiga kirishib ketardi.

— Asar qahramonlarining hayoti haqida mulohaza yuritardim. Inson hamisha yaxshi yashashga harakat qilishi kerak deb o‘ylardim, — deydi qahramonimiz.

Ana shunday o‘y-mulohazalar Xurramni erta ulg‘aytirdi. Toshkentdagi maktab-internatda 9-sinfni imtiyozli tugallab, Forishga qaytib ketdi. Qishlog‘idagi 12-maktabni ham 1997-yilda imtiyozli tugatdi. Shu yili Jizzax industrial texnikumining hisobchilik bo‘limiga hujjat topshirib, imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘tdi. U texnikumning a‘lochil talabalaridan edi. Jamoat ishlarida ham faol ishtirok etar, imkoniyati cheklanganini sabab qilib ko‘rsatib, ayrim ishlardan ozod qilishlarini so‘ramasdi. Billimga ishtiyiqi, mustaqil o‘qib-o‘rganishi

tufayli texnikumni imtiyozli tugalladi. Otasi oliy ta‘lim muassasasiga kirib, o‘qishni davom ettirishni maslahat berdi.

— Ochig‘ini aytсам, otamning maslahati bilan o‘qishni davom ettirishim mumkin edi. Ammo texnikumda olgan bilimlarimni amaliyotda sinab ko‘rmoqchi bo‘ldim. Buxgalteriya juda murakkab soha, bitta raqamning o‘zi ketishi yoki kam bo‘lishi barcha mehnatgizni yo‘qqa chiqarishi mumkin, — deydi Xurram Tangirov.

U Forish tumanidagi bir idoraga bosh hisobchi vazifasiga tayinlanadi. Bir yil davomida nazariy bilimlarini amaliyotda sinovdan o‘tkazdi. Boshqa tashkilotlarning hisobchilari tayyorlagan hisobotlarni ko‘rib, xato va kamchiliklarini to‘g‘rilashda yordam berardi.

— Ajoyib o‘g‘lingiz bor-da, — derdi boshqa hisobchilar Ergash akaga. — Kelajakda hisobchilik kasbining professori bo‘ladi.

Lekin Xurramning boshqa rejalarlari bor edi. Dunyoda informatika, raqamlashtirish jadal rivojlanmoqda. U shu sohalarini o‘zlashtirishni istardi. Shuning uchun 2000-yilda Jizzax davlat pedagogika institutining matematika va informatika yo‘nalishiga o‘qishga kirib, 2004-yilda bakalavriat diplomini oldi. Institutda o‘qigan kezlari hech kim kutmagan taklif va tashabbuslar bilan chiqishi, informatika va raqamlashtirishning kelajagi haqidagi fikrlari bilan ustozlarining e‘tiborini qozongan edi. Shu sababli unga institutda qolib, “Matematik ta‘lim jarayonini axborotlashtirish” markazida ishlash taklif qilinishiga juda xursand bo‘ldi. Yana ishga sho‘ng‘ib ketdi.

Aslida, Xurram birinchi guruh nogironi edi. Keyinchalik negadir unga ikkinchi guruhga tushirilgani ma‘lum qilindi. Bu masalalar

Xurram uchun endi ahamiyatini yo‘qotgandi. Eng asosiysi, uning sevimli ishi, sevimli jamoasi bor edi. Shuning uchun “Bilganlarimni qilinglar!” deganday qo‘l siltab qo‘ydi. U 2004-yildayoq umr yo‘li xaritasini “chizdi” qo‘ygandi.

Xurram Tangirov hozir Jizzax davlat pedagogika universitetining informatika va raqamli ta‘lim texnologiyalari kafedrasida mehnat qilmoqda.

— Xurram mudom izlanishda, doim yangi g‘oyalari, ta‘lim samaradorligini oshirish bo‘yicha fikrlari bilan boshqalardan ajralib turadi, — deydi universitet rektori, professor Shavkat Sharipov. — To‘rt munchasi professor Tangirov barcha muvaffaqiyatga o‘z harakati, izlanish va intilishlari bilan erishmoqda. Hatto biror jamoatchilik vazifasi yuklatilsa ham og‘rinmaydi. O‘sha vazifaga jon-dili bilan kirishib ketadi va ijobiy natijalar bilan yakunlaydi.

Qahramonimiz tinimsiz izlanishi, sa‘y-harakati bilan 2022-yilda fizika-matematika bo‘yicha falsafa doktori bo‘ldi. Yaqinda unga dotsent ilmiy unvoni berildi. Davlatimiz rahbarining tegishli farmoniga ko‘ra, Xurram Tangirov “Shuhrat” medali bilan mukofotlandi. Bu uning ko‘p yillik izlanish va mehnatlari e‘tirofi edi.

— 27-sentabr oqshomi yaqinlarim, ustoz shogirdlarim tabriklaridan keyin Prezidentimiz farmonini o‘qib, xursandligimdan yig‘ladim. Birdan o‘tmishim ko‘z o‘ngimdan o‘tdi. Bayram arafasida viloyat hokimi medalni tanalan topshirdi. Kamtarona mehnatlarim

evaziga mana shunday yuksak mukofotga, ustozlarim, shogirdlarim e‘tirofi hamda e‘zoziga sazovor bo‘lganimdan, qolaversa, o‘qituvchilikdek sharaflil kasbni tanlaganimdan xursand bo‘ldim, — deydi Xurram Tangirov. — Kasb bayramimiz arafasida davlatimiz rahbari Pedagogik mahorat milliy institutida o‘qituvchi va murabbiylar bilan muloqot qiltdi. Ushbu muloqotda ta‘lim tizimini rivojlantirish, jamiyatda o‘qituvchi, ustoz va murabbiylar mavqeiini oshirish, mehnatini munosib qadrlash bo‘yicha vazifalar belgilandi. Prezidentimiz bildirgan yuksak ishonch, berilgan ushbu davlat mukofotining, albatta, o‘ziga yarasha mas‘uliyati bor. Bundan keyin ham bor bilim va mahoratimni mamlakatimizda ta‘lim tizimini yanada rivojlantirishga sarflayman.

“Olma daraxtining tagiga olma tushadi”, deganlaridek, Xurramning farzandlari ham ilmga oshufta bo‘ldi. Katta o‘g‘li Behruzbek bu yil Prezident maktabini tugallab, “Yangi O‘zbekiston” universitetiga o‘qishga kirdi. Ikkinchi farzandi Hayotbek Jizzax shahridagi Prezident maktabida o‘qimoqda. Kenja Muslimbek esa bu yil 1-sinfga bordi.

Xurram Tangirovning ma‘naviy dunyosi boy. Yuksak bilim, keng dunyoqarash sohibi. Bukilmas irodasi va ulkan salohiyati bor. Buni kelajakdagi rejalaridan ham bisa bo‘ladi. U davlat mukofotidan ruhlanib, o‘z yo‘nalishida ilmiy ishlarni davom ettirib, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirishga, ayniqsa, davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga ko‘maklashishni ham niyat qilgan.

Asad MUSTAFOYEV,
jurnalist

